ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYACHISINING SHAXSIY VA KASBIY SIFATLARINI ADABIYOTLAR ORQALI SHAKLLANTIRISH

Suvonqulova Zarnigor Vahobjon qizi
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqola tarbiyachilarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini adabiyotlar orqali shakllantirishga bag'ishlanadi. Adabiyotlar o'qish orqali tarbiyachilarning pedagogik mahorati shakllantiriladi. Pedagogik mahorat, shaxsiy va kasbiy sifatlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: pedagogik mahorat, adabiyotlar, shaxsiy sifatlar, kasbiy sifatlar, shakllantirish.

KIRISH

Bugungi kunda tarbiyachilarga bo'lgan e'tibor ko'paymoqda. Yurtimizning kelajagi bo'lmish yoshlarimizning ta'lim va tarbiyasi ham aynan tarbiyachilarga bog'liq. Tarbiyachi avvalo, o'zi tarbiyali bo'lmog' lozim deb bekorga aytishmagan.kitobxonlik madaniyatiga ham hozirgi kunda e'tibor qaratilyapti va har ikkalasini uyg'unlashtirgan holda tarbiyachilarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini shakllantirish ham yangi usullardan biri bo'ladi. Ular ish faoliyatlari davomida doimo yangilik bilan hamnafas bo'lishlari darkor.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Sh.M.Mirziyoyev qarorlari, adabiyotlar, mavzuga doir kitoblar hamda internet manbalaridan foydalanildi. Maqolani yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillari qo'llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Adabiyotlarning tarbiyachi shaxsiga ko'rsatadigan ta'sir mexanizmlari, adabiy qahramon obrazlari orqali ijobiy namuna yaratish, adabiy matnlarning emotsional-estetik va axloqiy-falsafiy ta'siri, hamda tarbiyachining adabiy-pedagogik madaniyatini shakllantirish jarayoni tadqiqot markaziy qismlaridan biridir. Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachining shaxsiyati va faoliyati bir-biri bilan uzviy bog'liq. Tarbiyachining bilim va ko'nikmalar tizimiga egaligi, o'zining butun shaxsi bilan bolalarga ta'sir ko'rsatishi, bolalar uchun hayotiy va ma'naviy namuna bo'lishi kerak. K.D.Ushinskiy o'z asarlarida tarbiyachining shaxsiy sifatlari ahamiyatini aytib, "Tarbiyachidagi barcha bilim, ko'nikmalar majmui tarbiyachining shaxsiga asoslangan bo'lishi lozim, chunki tarbiyaviy kuch faqat tirik shaxsning tirik shaxsga ta'siridan kelib chiqadi" degan xulosaga kelgan[32]. Tarbiyachi bolaning eng birinchi professional pedagogi hisoblanadi. Bola shaxsining shakllanishi muhim o'rin egallaydi hamda tarbiyachining shaxsiy kasbiy sifatlari bolada tarbiyaviy jarayonning samaradorligini belgilaydi. Tarbiyachining shaxsiy va kasbiy sifatlari insonning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Shaxsiy va kasbiy sifatlari tarbiyachining ish faoliyati jarayonidagi asosiy resurslardan bittasidir. Tarbiyachi-pedagog qanday bo'lishi kerak? Birinchi navbatda, pedagogik faoliyatda ish olib borish qobiliyatiga ega, kreativ, ishbilarmon, bolalarni chin dilidan sevadigan, keyingi navbatda, milliy qadriyatlarimizni tushunadigan hozirgi dunyo bilimlaridan xabardor bo'lishi kerak. O'z fikriga ega, vatanparvar, fidokor, pedagogik-psixologik bilimga ega, bolaning xarakter hususiyatini tushuna oladigan bo'lishi lozim. Pedagog o'zgalarga namuna, ibrat bo'lishi, adolatli, erkin fikrlay oladigan va shu o'rinda tarbiyalanuvchilarda ham xuddi shunday xususiyatlarni shakllantira olishi lozim. Pedagog-tarbiyachi nutqi ravon, so'zlar va voqealar zanjirini davom ettira oladigan, tarbiyalanuvchilarga tushuntirish jarayonida oddiydan murakkabga tomon harakatlana oladigan ya'ni izchillikni ta'minlaydigan bo'lishi kerak. Etika-estetikaga rioya qilishi, ko'pchilik orasida o'zini tuta bilishi, o'zini xotirjam ushlab tura olish, bosiqlik, kiyinish madaniyatini tushunadigan qobiliyatlarni o'zida mujassam qilmog'i lozim. Pedagog, tarbiyachi, o'qituvchilik kasbi yuksak e'tirofga ega kasb. Chunki biror-bir kasb yo'qdirki o'qituvchilik kasbining hissasi qo'shilmagan. Tarbiyachining shaxsiy va kasbiy rivojlanishi butun jamiyatda muhim o'rin egallagan. Tarbiyachining shaxsiyati, kasbiy bilimlari tarbiyachilik kasbidagi muhim qismidir. Shu sababli, tarbiyachilarning salohiyatini kuchaytirish ularning shaxsiy va kasbiy sifatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Agar tarbiyachilarning pedagogik faoliyatda olib borayotgan ishlari

samarali bo‘lsa, bu maktabgacha ta’lim tashkilotining nufuzini ham belgilab beradi. Tarbiyachining shaxsiy va kasbiy sifatlarini shakllantirish orqali tarbiyachilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortadi, ishlash va yangiliklarni o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasi kuchayadi bu esa, tarbiyachining psixologik holatiga ta’sir o‘tkazadi. Natijada, tarbiyachi o‘z kasbidan mamnun bo‘ladi. Pedagogik faoliyat juda qadimdan shakllangan. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida odamlar ovga chiqqan paytida ularning o‘g‘il farzandlari o‘z otasiga ergashib ov qilishni o‘rgangan, qiz farzandlar esa onasining yonida qolib uy yumushlarini o‘rgangan, keksalardan esa ular tarbiyani olishgan va mana shunday qilib pedagogik jarayon rivojlanib borgan. Buyuk allomalardan Abdurahmon Jomiy o‘z asarlarida tarbiyachi-muallim faoliyatiga quyidagicha ta’rif bergan: “Muallim bilimli, aqlli, adolatli, o‘zida butun yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo‘lishi kerak. O‘zini nomunosib tutgan odam hech vaqt bolalarga bilim va odob bera olmaydi”. Muallimning yuksak sifati uning aqli, ilmi, fikri, so‘zi, axloq-u odobidadir, - degan edi.

Qomusiy olimlarimizdan biri Abu Rayhon Beruniy ilm toliblariga qalbimizni yomon, qotib qolgan urf-odatlardan, hirsdan , inson o‘zi sezishi mumkin bo‘lmagan holatlardan, keraksiz raqobatdan, shon-shuhratdan, ochko‘zlikdan saqlanish zarurligini uqtirgan. Bu so‘zlar tarbiyachining shaxsiy sifatlarini shakllantirishga ko‘maklashadi. Beruniy bilim olishni axloqiy tarbiya bilan bog‘lagan. Bundan kelib chiqadiki ta’lim-tarbiya, axloq, kasbiy yondashuv har doim birga yuradi. Ta’lim faqat o‘rgatish, o‘qitish, o‘qish hamda so‘z bilangina bo‘lishi mumkin, tarbiya esa, amaliyot, tajriba hamda shu xalqning, millatning amaliy malakalaridan tashkil topgan kasb-hunar, ish-harakat bilan mujassamlashadi. Beruniyning o‘quvchiga bilim berishda: o‘quvchini zeriktirmaslik, bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o‘rgatavermaslik, uzviylik, izchillik, tahlil qilish va taqqoslash, ma’lumdan noma’lumga, yaqindan uzoqqa, soddadan qiyinga qarab borish, takrorlash, yangi mavzularni qiziqarli, ko‘rgazmali bayon etishga e’tibor berish kerakligi tarbiyachining kasbiy faoliyatiga daxldordir. Abu Ali ibn Sino “Tarbiya haqida risola” asarida shunday degan edi: Tarbiyachi o‘zi pokiza bo‘lmasa boshqalarni pokiza qila olmaydi. O‘zbek milliy pedagogikasida tarbiyachidan halollik, poklik, toza niyat, insonparvarik talab etiladi, Ibn Sinoning bu so‘zlari esa ushbu gapimizning yaqqol dalilidir., O‘zi komil bo‘lmasa, bolani kamolga yetkazmaydi”. Tarbiyachilarning kasbiy mahoratlarini takomillashtirish to‘g‘risidagi muammolar chex olimi mashhur pedagog Y.A.Komenskiy o‘qituvchi-tarbiyachining eng muhim xususiyatlari qatoriga bolalarni sevishi, yuksak axloqi, bilimdonligi, iqtidori, qobiliyati kabilarni kiritadi va ularning mohiyatini mukammal tavsiflab beradi. Shunday ekan Vatan tayanchi, kelajak bunyodkori bo‘lgan bolalarning ta’limiy va tarbiyaviy masalalari tarbiyachilarga bog‘liq. Tarbiyachining ilmiy salohiyati va insonparvarligi bolalarning ta’lim-tarbiya jarayoniga ta’sir o‘tkazadi.

Shunday adabiyotlar mavjudki, ular tarbiyachining psixologiyasiga ta’sir o‘tkazishi mumkin, yoki aksincha, tarbiyachiga bolaning psixologiyasini o‘rgatib qo‘yishi mumkin. Tarbiyachiga eng birinchi o‘rinda o‘zining shaxsiy va kasbiy sifatlarini tartibga solishi, rivojlantirishi, takomillashtirishi kerak va shu bilan birga bolaning psixologiyasini o‘rgatadigan adabiyotlar ham mavjud. Misol uchun L. Usacheva, N.Ubaydullayeva muallifligi ostidagi “Tarbiyachilar uchun ekspress psixologiya 24 soatda” kitobida bolalar psixologiyasi va ularda amaliy ishlashning nazariy bilimlari berilgan. Bu asar orqali tarbiyachi kasbiy faoliyatini rivojlantirgan holda bolalar psixologoyisi bilan shug‘ullanish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Bu tarbiyachiga amaliy faoliyatda qo‘l keladi. “Tarbiyachilar uchun ekspress psixologiya 24 soatda” kitobida tarbiyachilarning kasbiy faoliyatini samarali qilishni ta’minlaydigan bir jumla bor: “Ular soatlab o‘tirib, o‘zlarining tasavvurlaridagi vaziyatlarni o‘ylab chizishlari, turli qahramonlarga aylanib, begona mushukning ayanchli taqdiridan qayg‘urishlari, yig‘lashlari yoki sahnada sodir bo‘layotganlardan quvonib chinqirishlari mumkin. Katta odam bunday qilolmaydi, albatta. Shuning uchun bolalardan ular hal qilolmaydigan narsalarni qidirmay, balki kattalardan nimasi bilan farqlanishini, ya’ni ichki, ruhiy olamining o‘ziga xosligini topish zarur.” Bu jumlalar tarbiyachiga bolaning faoliyat jarayonida ortiqcha zo‘rayishini oldini olish va ularga yoshiga mos bilimlarni egallashni o‘rgatadi.

“Adabiyot tarbiyalamagan qalb vaxshiylikka, yovuzlikka, tubanlikka moyil qalbdir. Chunki adabiyot bilan to‘lgan qalbga yovuzlik kirib olishi qiyin kechadi, ko‘ngil mayli yovuzlik tomonga o‘tishdan oldin u yerda adabiyot bunyod etgan qo‘rg‘onlarni, qal’alarni buzib tashlashiga to‘g‘ri keladi. Adabiyot bilan to‘yingan qalb, ong – poydevori mustahkam binoga o‘xshaydi. U zalolatga boshlovchi ko‘plab zilzilalarga dosh bera oladi. Adabiyot va san’at tarbiyalamagan qalb “eng past silkinishlarga” dosh berolmay, to‘kilib ketadi. Bu – asrlar osha isbotlangan haqiqat degan Nazar Eshonqul.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Adabiyot maktabgacha ta’lim tarbiyachisining shaxsiy va kasbiy sifatlarini shakllantirishda noyob o’ringa ega. U nafaqat bilim manbai, balki emotsional tajriba, qadriyatlar tizimi, kasbiy identifiklik, ijodiy ilhom va kasbiy rivojlanish motivatsiyasining manbaidir.

Shaxsiy sifatlar darajasida adabiyot gumanistik qadriyatlar, empatiya, emotsional intellekt, kreativlik, refleksiv qobiliyatlarni shakllantiradi. Kasbiy sifatlar darajasida esa pedagogik bilim, didaktik va metodik kompetentlik, kommunikativ qobiliyatlar, diagnostika ko’nikmalari, kasbiy o’z-o’zini rivojlantirish qobiliyatini rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tarbiyachilar uchun ekspress psixologiya 24 soatda, Usacheva L, Ubaydullayeva N, Davr Press, Toshkent 2021-yil, 212 bet. [9]
2. Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati, X. Meliyev, O. Jamoldinova. K.Risqulova. – Тошкент: Zarvaraq nashriyoti, 2021 – 288 б. O‘quv qo‘llanma
3. Uchdan keyin kech, Masaru Ibuka, Nihol 2023-yil 242 bet. [[12]
4. Umumiy pedagogika, O‘.J.Yo‘ldoshev, Fan va texnologiya nashriyoti, Toshkent-2017.
5. kun.uz
6. kh.davron.uz
7. oyina.uz